


## IX. KICHIK TADBIRKORLIK


Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, ularning faoliyati uchun qulay muhit yaratish borasida amalga oshirilayotgan tadbirlar natijasida 2023- yilning yanvar-iyun oylarida 3 673 ta yangi kichik biznes subyektlari (dehqon va fermer xo'jaliklarisiz) tashkil etilib, ro'yxatga olinganlar soni esa 57 404 taga yetdi.

2023- yil 1- iyul holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 38 122 tani va o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 82,0 %ni tashkil qildi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 4362 tasi (82,6 %) – Zangiota, 3394 tasi – (105,8 %) Qibray, 2 705 tasi – (79,0 %) Toshkent tumanlari hamda 2 389 tasi – (90,3 %) Chirchiq, 1 985 tasi – (76,8 %) Angren shaharlari hissalariga to'g'ri keladi.




**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %da**




2023- yil yanvar-iyun oylarida viloyatimizda yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 3673 tani tashkil qilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 10 taga yoki 100,2 %ga ko'paygan..


**Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlarining yillar kesimida soni (yanvar-iyun oylarida, birlikda)**



**Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlarining  
yillar kesimida o'sish dinamikasi**  
(yanvar-iyun oylarida, %da)



**Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari sonining  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi**  
2023- yil yanvar-iyun oylarida (jamiga nisbatan %da)



Eng ko‘p kichik biznes subyektlari savdo (jami tashkil etilgan subyektlarning 40,3 %i), sanoatda (17,0 %), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi (10,1 %) sohalarida yangi tashkil etilgan.

2023- yilning yanvar-iyun oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan:

- yalpi hududiy mahsulotning 47,7 %i (2022- yil yanvar-iyunda 44,7 %) kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarildi.

- sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 10597,0 mlrd. so‘mni (jami sanoat ishlab chiqarishining 21,7%) tashkil qildi;

- qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaliklarining ishlab chiqarilgan (ko‘rsatilgan xizmatlar) hajmi 14446,5 mlrd. so‘mni tashkil qilib, o‘sish sur‘ati 101,8 % (qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi yalpi mahsulotining 92,8%) tashkil qildi;

- 7661,0 mlrd. so‘mlik investitsiyalar (viloyat bo‘yicha umumiy investitsiyalar hajmining 41,5%) o‘zlashtirildi va 2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 119,1%ni tashkil qildi;

- 5328,4 mlrd. so‘mlik qurilish-pudrat ishlari (umumiy qurilish-pudrat ishlari hajmining 80,9%i) bajarildi va 2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 122,2%ga oshdi;

- avtomobil transporti yuk aylanmasining o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 2,3 %ga ko‘paygan, (viloyat jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 57,5 %), yo‘lovchi aylanmasi esa 0,1 %ga (umumiy yo‘lovchi aylanmasining 97,9 %) ko‘paydi;

- chakana tovar aylanmasi umumiy hajmining 86,1 %ini yoki 9543,1 mlrd. so‘mini (o‘sish 112,3 %) kichik biznes korxonalarini shakllantirdi;

- xizmatlar umumiy hajmining 69,2 %i yoki 10035,0 mlrd. so‘mi (o‘sish 107,1 %) kichik biznes subyektlari hissasiga to‘g‘ri keldi;

- 276,2 mln. AQSh dollari (umumiy eksport hajmining 29,3 %i) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport hamda 942,3 mln. AQSh dollari (umumiy import hajmining 51,6 %i) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) import qilindi.

**Yalpi hududiy mahsulot va iqtisodiyot tarmoqlari mahsuloti (ishlar, xizmatlar) umumiy hajmida kichik tadbirkorlik (biznes) ulushining o'zgarishi**  
(umumiy hajmga nisbatan % hisobida)



**Kichik tadbirkorlikning hududlar kesimida iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridagi ulushi, %da**

	Sanoat	Qishloq xo'jaligi	Qurilish	Xizmat	Savdo	Investitsiya	Ekspart	Import
<b>Jami viloyat</b>	21,7	92,8	80,9	69,2	86,1	41,5	29,3	51,6
<b>shaharlar:</b>								
Nurafshon	18,8	100,0	92,4	46,6	73,9	16,9	77,9	86,5
Olmalik	1,5	100,0	20,6	69,4	85,9	1,9	2,0	7,4
Angren	27,5	89,9	97,5	64,9	84,5	68,8	52,0	42,7
Bekobod	2,0	100,0	51,9	75,6	87,8	15,6	2,7	1,4
Ohangaron	19,7	99,2	100,0	79,3	88,0	49,9	34,7	32,9
Chirchiq	36,6	100,0	75,3	69,3	74,6	22,5	23,1	82,0
Yangiyo'l	67,1	99,7	100,0	88,7	92,5	62,4	97,8	92,7
<b>tumanlar:</b>								
Oqqo'rg'on	19,8	96,8	100,0	84,0	98,3	86,7	18,0	58,3
Ohangaron	7,5	92,3	99,2	74,1	87,4	96,8	24,8	30,5
Bekobod	56,3	98,2	100,0	74,5	89,8	47,3	95,9	100,0
Bo'stonliq	15,8	98,8	87,8	57,0	74,8	49,0	37,3	24,9
Bo'ka	52,1	94,6	100,0	83,0	94,8	57,7	91,0	68,9
Quyichirchiq	80,1	86,4	99,9	48,9	96,0	95,7	97,4	100,0
Zangiota	91,3	94,1	99,9	59,8	85,9	73,9	88,3	97,7
YuqoriChirchiq	77,4	92,2	87,4	72,5	84,6	83,1	89,5	86,9
Qibray	33,2	91,4	71,7	61,2	74,7	53,5	94,5	79,1
Parkent	87,9	99,4	100,0	79,0	74,9	76,4	79,2	99,4
Piskent	39,7	78,6	100,0	73,3	91,8	85,5	61,7	46,2
O'rta Chirchiq	44,7	91,7	95,3	74,0	97,3	62,4	79,4	87,7
Chinoz	42,3	96,8	100,0	58,2	91,0	61,1	38,2	63,9
Yangiyo'l	39,4	86,7	97,0	81,7	90,1	55,1	36,9	37,8
Toshkent	87,1	93,1	100,0	78,9	86,0	16,9	87,6	86,8